SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 5-noyabr | 426-8-111-Q/24 | Denov tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha tashkilotlarining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 716-son xdfu qarori hamda viloyat hokimining shu asosda qabul qilingan 2024-yil 5–noyabrdagi 719-8-0-Q/24–sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha tashkilotlarining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 716-son xdfu qarori hamda viloyat hokimining 2024-yil 5–noyabrdagi 719-8-0-Q/24–sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha tashkilotlarining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 716-son xdfu qarori hamda viloyat hokimining 2024-yil 5–noyabrdagi 719-8-0-Q/24–sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida tuman aholisi va ijtimoiy soha tashkilotlarini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari (kartoshka, piyoz, sabzi, guruch) bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Sadikov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (U.Xojiyev), tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (F.Raxmatullayev):

tumanda 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida ichki iste’mol bozori uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan mablag‘larning prognoz parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

Tuman hokimligi shartnoma asosida jalb etadigan tayyorlov hamda savdo tashkilotlari tomonidan ichki iste’mol bozori uchun 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan mablag‘larning prognoz parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun 2024-2025-yillar qish bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan budjet mablag‘larining prognoz parametrlari 3-ilovaga muvofiq;

tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (U.Xojiyev) tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida ichki iste’mol bozori uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini Maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlari tomonidan zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan mablag‘larning prognoz parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo‘limi (E.Jumayev), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun 2024-2025-yillar qish bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan budjet mablag‘larining prognoz parametrlari 5-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish muddatlari 6-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ichki iste’mol bozorida sotish bo‘yicha tarmoq jadvallari 7, 8, 9, 10 va 11-ilovalariga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Saydaxmedov, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘imi (Sh.Sadikov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov) bilan birgalikda:

bir hafta muddatda 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq reja-jadvalni tasdiqlasin hamda uning ijrosini ta’minlasin;

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arishning hududlar va tadbirkorlik subyektlari kesimidagi prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi, omborxonalar va sovitkichli sig‘imlarda zaxiralar to‘liq shakllantirilishini “Raqamli qishloq xo‘jaligi” platformasi tarkibiga kiruvchi “Oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiralash tizimi” (fsp.agro.uz) (keyingi o‘rinlarda axborot tizimi) orqali doimiy monitoring qilib borsin;

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining ichki iste’mol bozorlariga intervensiya qilinishi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan zaxiraga jamg‘arilgan mahsulotlarning tasdiqlangan tarmoq jadvallari bo‘yicha oyma-oy ichki

iste’mol bozorlariga va ijtimoiy soha tashkilotlariga yetkazib berilishining doimiy monitoringini ta’minlasin.

Bunda monitoring natijalari bo‘yicha kunlik ma’lumotlar axborot tizimiga kiritib borilsin.

Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasi to‘g‘risidagi kunlik ma’lumotlar axborot tizimiga to‘liq kiritib borilishi uchun tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov), axborot tizimiga tegishli axborotlarni o‘z vaqtida kiritmagan yoki sifatsiz axborot kiritgan korxona va tashkilotlarga nisbatan choralar ko‘rish yuzasidan tuman hokimligiga takliflar kiritib borsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Saydaxmedov, tuman O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi (O‘.Ibragimov) 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxira qilinadigan omborxonalarda zararkunandalarga qarshi fumigatsiya (zararsizlantirish) ishlarini amalga oshirsin.

6. Quyidagilar asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish bo‘yicha belgilangan hajmlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Tuman hokimligi huzurida tashkil etilgan Aholini asosiy turdagi mahsulotlar oziq-ovqat bilan ta’minlash zaxira jamg‘armalari mablag‘lari;

tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (U.Xojiyev) hamda tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (F.Raxmatullayev) tashkilotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari va ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari;

tayyorlov va savdo tashkilotlariga tijorat banklari tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan kreditlari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi zaxirasi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish maqsadida tijorat banklari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tayyorlov va savdo tashkilotlariga kreditlar ajratadi.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov) budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanuvchi ijtimoiy soha tashkilotlariga 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish uchun zarur bo‘ladigan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan ajratilishini ta’minlasin.

9. Bunda ijtimoiy soha tashkilotlari tomonidan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda dehqon bozorlarida shakllanadigan o‘rtacha

narxlardan kelib chiqqan holda, tegishli ijtimoiy soha tashkilotining xarid komissiyasi tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo‘li bilan tuzilgan shartnomalarning tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (S.Marupov) hududiy bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishiga ruxsat etiladi va ushbu shartnomalar tuzilgan sanadan boshlab uch kundan kechiktirmasdan, davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirsin.

10. Tuman hokimlining tegish majmualari:

uch kun muddatda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish uchun tayyorlov va savdo tashkilotlari bilan mahsulot yetishtiruvchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida mahsulot yetkazib berish bo‘yicha kontraktatsiya shartnomalarini tuzish ishlarini tashkil etsin;

zaxira uchun jamg‘arilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari reja-jadvalda belgilangan muddatlarda jamg‘arilishini hamda mahsulotlarning ichki iste’mol bozoriga va ijtimoiy soha tashkilotlariga muntazam yetkazib berilishini ta’minlasin.

11. Quyidagilar:

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda ularning maqsadli ishlatilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 12-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish maqsadlari uchun xarid qilishni moliyalashtirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Quyidagilarga:

a) 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda ularning maqsadli ishlatilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhiga (A.Saidov, S.Saydaxmedov):

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini hududlar va tadbirkorlik subyektlari kesimida zaxiraga jamg‘arishning prognoz parametrlari bajarilishi ustidan monitoringni ta’minlash;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ehtiyojga nisbatan kam yetishtiriladigan hududlar, jumladan, olis va chekka hududlar aholisining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini ehtiyojdan ko‘p miqdorda mahsulot ishlab chiqaradigan hududlar hisobidan qoplash choralarini ko‘rish;

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish uchun jalb etilgan tayyorlov va savdo tashkilotlari bilan mahsulot yetishtiruvchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida mahsulot yetkazib berish bo‘yicha kontraktatsiya shartnomalarini tuzish ishlarini tashkil etish;

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini saqlash uchun mavjud omborxona va sovitkichli sig‘imlardan oqilona va samarali foydalanish

maqsadida sig‘imlar yetishmayotgan hududlarga o‘z ehtiyojidan ortiq bo‘lgan hududlardan sig‘imlarni biriktirish;

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o‘zgarishini tahlil qilib borish, zaxira maqsadlari uchun mahsulotlarni qo‘shimcha xarid qilish, tayyorlash, saqlash hamda sotish bilan bog‘liq muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish;

b) 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish maqsadlari uchun xarid qilishni moliyalashtirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhiga (M.Rasulov):

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish uchun jalb etilgan tayyorlov va savdo tashkilotlariga tijorat banklari kreditlari ajratilishida amaliy yordam ko‘rsatish;

tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (U.Xojiyev), tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (F.Raxmatullayev) hamda boshqa ijtimoiy soha tashkilotlari ehtiyojlari uchun zaxiraga jamg‘ariladigan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish xarajatlarini ushbu tashkilotlarning budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni tashkil etish vazifalari yuklansin.

13. Belgilab qo‘yilsinki:

asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish uchun jalb etilgan tayyorlov hamda savdo tashkilotlariga, istisno tariqasida, bozor va savdo komplekslarida mahsulot sotish uchun rastalar va sotuv anjomlari vaqtincha foydalanish uchun bepul ajratiladi;

omborxona va sovitkichli sig‘imlarga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalarga ko‘ra asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasi shakllantiriladi.

14. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Denov tumani bo‘limi (Ch.Boysariyev) aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosida sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga so‘zsiz rioya etilishi hamda mahsulotlarning sifati va xavfsizlik ko‘rsatkichlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablari asosida ichki iste’mol bozorlariga chiqarilishi ustidan ta’sirchan nazoratni ta’minlasin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Denov tumani bo‘limi (S.Qurbonov) omborxona va sovitkichli sig‘imlarda 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining amalda to‘liq jamg‘arilishi, ularning birinchi navbatda, tumanning olis va chekka hududlaridagi aholi punktlariga hamda tuman markazlarida joylashgan barcha dehqon bozorlari va savdo majmualariga yetkazib berilishida amaliy yordam bersin va nazorat o‘rnatsin,

shuningdek, tayyorlov va savdo tashkilotlari tomonidan ushbu mahsulotlar narxining asossiz oshirilishi, ichki iste’mol bozorlarida sifatsiz mahsulotlar sotilishi hamda kelishib qilinadigan harakatlar va til biriktirishlar holatlarining oldini olish choralarini ko‘rsin.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Saidov, S.Saydaxmedov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **I.Abrorov**

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Denov tumanida 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida ichki iste'mol bozori uchun asosiy turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg'arish hamda talab etiladigan mablag'larning
PROGNOZ PARAMETRLARI

tonna

T/r	Tuman nomi	Jami mahsulot tonna	jumladan:				Jami talab etiladigan mablag', mln.so'm	shundan	
			Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Guruch		Bank krediti	o'z mablag'i
1	Denov	5671	3335	478	1243	616	22843	3426	19417

Izoh: Talab etiladigan mablag'lar mahsulotlarning 2024-yil 30-oktabrdagi bozordagi o'rtacha narxlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Denov tumani hokimligi shartnoma asosida jalb etadigan tayyorlov hamda savdo tashkilotlari tomonidan ichki iste'mol bozori uchun 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg'arish hamda talab etiladigan mablag'larning
PROGNOZ PARAMETRLARI

tonna

T/r	Tuman nomi	Jami mahsulot	jumladan:				*Talab etiladigan mablag', mln.so'm
			Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Guruch	
1	Denov	5554,0	3272,1	453,0	1219,3	609,6	22417,5

Izoh: Talab etiladigan mablag'lar mahsulotlarning 2024-yil 30-oktabrdagi bozordagi o'rtacha narxlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun 2024-2025-yillar qish bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan budjet mablag‘larining

PROGNOZ PARAMETRLARI

tonna

T/r	Tuman nomi	Jami mahsulot	jumladan:				*Talab etiladigan mablag‘, mln.so‘m
			Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Guruch	
1	Denov	110,5	58,5	23,5	22,5	6,0	398,7

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Denov tumanida 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida ichki iste’mol bozori uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini Maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlari tomonidan zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan mablag‘larning
PROGNOZ PARAMETRLARI

tonna

T/r	Tuman nomi	Jami mahsulot	jumladan:				*Talab etiladigan mablag‘, mln.so‘m
			Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Guruch	
1	Denov	117,3	62,5	24,5	23,7	6,6	425,7

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
5-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun 2024-2025-yillar qish bahor mavsumiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda talab etiladigan budjet mablag‘larining PROGNOZ PARAMETRLARI

tonna

T/r	Tuman nomi	Jami mahsulot	jumladan:				*Talab etiladigan mablag‘, mln.so‘m
			Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Guruch	
1	Denov	6,8	4,0	1,0	1,2	0,6	27,0

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
6-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish MUDDATLARI

tonna

T/r	Mahsulot nomi	Jami zaxira hajmi	Jumladan:						
			noyabr oyida jami	shu jumladan:			dekabr oyida jami	shu jumladan:	
				1 dan 10 gacha	11 dan 20 gacha	21 dan 30 gacha		1 dan 10 gacha	11 dan 21 gacha
1	Kartoshka	3 335,0	2 668,0	808,4	925,8	933,8	667,0	433,6	233,5
2	Piyoz	478,0	351,3	108,9	119,5	123,0	126,7	71,7	55,0
3	Sabzi	1 243,0	955,9	281,0	340,3	334,6	287,1	193,5	93,6
4	Guruch	616,0	431,2	126,8	153,5	150,9	184,8	120,1	64,7
Jami:		**5 671,0**	**4 406,4**	**1 325,1**	**1 539,0**	**1 542,2**	**1 264,6**	**818,9**	**446,7**

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
7-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ichki iste’mol bozoriga sotish bo‘yicha
TARMOQ JADVALI

T/r	Hududlar	Jami zaxira qilingan mahsulot	Shu jumladan, 2025-yil oylar bo‘yicha				
			Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May
1	Denov	5 554	577,0	844,5	1 112,3	1 647,5	1 372,7

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
8-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan kartoshkani ichki iste’mol bozoriga sotish bo‘yicha
TARMOQ JADVALI

T/r	Hududlar	Jami zaxira qilingan mahsulot	Shu jumladan, 2025-yil oylar bo‘yicha				
			Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May
1	Denov	3 272	327,3	490,8	654,4	981,6	817,9

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
9-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan piyozni ichki iste’mol bozoriga sotish bo‘yicha
TARMOQ JADVALI

T/r	Hududlar	Jami zaxira qilingan mahsulot	Shu jumladan, 2025-yil oylar bo‘yicha				
			Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May
1	Denov	453	60,7	76,3	92,1	123,3	100,6

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
10-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan sabzini ichki iste’mol bozoriga sotish bo‘yicha
TARMOQ JADVALI

T/r	Hududlar	Jami zaxira qilingan mahsulot	Shu jumladan, 2025-yil oylar bo‘yicha				
			Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May
1	Denov	1 219	128,0	185,9	243,9	359,7	301,8

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
11-ilova

2024-2025-yillar qish va bahor mavsumi uchun zaxiraga jamg‘ariladigan guruchni ichki iste’mol bozoriga sotish bo‘yicha
TARMOQ JADVALI

T/r	Hududlar	Jami zaxira qilingan mahsulot	Shu jumladan, 2025-yil oylar bo‘yicha				
			Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May
1	Denov	610	61,0	91,4	121,9	182,9	152,4

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
12-ilova

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish hamda ularning maqsadli ishlatilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1.	S.Saydaxmedov	—	Tuman hokimning o‘rinbosari, tuman ishchi guruhi rahbari
2.	Sh.Sadikov	—	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
3.	F.Raxmatullayev	—	Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
4.	U.Xojiyev	—	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
5.	S.Qurbonov	—	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Denov tumani bo‘limi boshlig‘i
6.	Sh.Bozorov	—	Tuman hokimligi kotibiyat mudiri

Denov tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
426-8-111-Q/24-son qaroriga
13-ilova

2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish maqsadlari uchun xarid qilishni moliyalashtirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi
TARKIBI

1.	M.Rasulov	—	Tuman hokimning birinchi o‘rinbosari, Tuman ishchi guruhi rahbari
2.	F.Raxmatullayev	—	Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
3.	U.Xojiyev	—	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
4.	Lavozimi bo‘yicha	—	Barcha tijorat banklari rahbarlari
5.	S.Narzullayev	—	Tuman hokimligi kotibiyat mudiri